

1-dars. Takrorlash. 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlar



1. Savollarga javob bering.

- a) **Yashil** doiralar ichidagi sonlar orasida qanday umumiylik bor?
Ko'k doiralar ichidagi sonlar orasida-chi?
 b) Har bir sonda nechta **o'nlik** va nechta **birlik** bor?
 d) Istalgan sonni tanlang. Unga **qo'shni** sonlarni ayting.

28

30

37

43

52

60

64

70

73

79

80

90

95



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$28 + 35$$

$$42 - 19$$

$$5 \cdot 7$$

$$54 : 6$$

$$51 + 39$$

$$71 - 26$$

$$3 \cdot 9$$

$$72 : 8$$

$$49 + 48$$

$$67 - 6$$

$$4 \cdot 8$$

$$36 : 6$$



3. O'zbekistonda 19 ta yirik va 90 ta kichik shahar bor. Kichik shaharlar soni katta shaharlardan qanchaga ko'p?



4. Tenglamalarni yeching. Ularning ildizlariga mos keladigan harflarni xuddi shu tartibda yozib, Toshkent shahrining qadimiy nomini bilib oling.

$$x + 46 = 99 - 17$$

$$x - 25 = 22 + 16$$

$$81 - x = 63 - 18$$

O	E	I	A	K	N	T	CH
63	65	13	67	38	35	34	36



5. **Qulay** usul bilan hisoblang. Olingan **ikki xonali** javoblarni **kamayish** tartibida joylashtiring va O'zbekiston daryolari sohilidagi chakalakzorlar qanday nomlanishini aniqlang.

A $(19 + 34) - 14$

Y $(48 + 17) - 38$

Q $82 - 15 - 25$

T $23 + 49 + 17$

E $58 + 66 + 34$

O' $100 - 14 - 16$





6. 1 va 2 raqamlari yordamida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan barcha **ikki xonali sonlarni** ayting. Sonlarda raqamlar takrorlanishi mumkin. Bu sonlarning yig'indisi nimaga teng?



7. Ifodalarni yozing va ularning qiymatini hisoblang.

- a) 45 va 58 sonlari yig'indisidan 27 sonini ayirish.
- b) 90 va 73 sonlari ayirmasiga 56 sonini qo'shish.
- d) 94 sonidan 8 va 6 sonlari ko'paytmasini ayirish.
- e) 27 soniga 63 va 9 sonlari bo'linmasini qo'shish.



8. Bayram munosabati bilan maktabga kirish yo'lagi rangli sharlar bilan bezatildi. Buning uchun 18 ta ko'k, ko'klardan 2 marta kam yashil va 48 ta oq sharlar ishlatildi. Yo'lakni bezatish uchun jami nechta shar ishlatilgan?



9. Tushirib qoldirilgan **amal belgilari** va **qavslarni** qo'ying.


$$81 \square 6 \square 3 = 9$$

$$35 \square 5 \square 7 = 0$$



10. Ko'rsatmalar bo'yicha **raqamni** toping:

- a) bu raqam doira ichiga ham, kvadrat ichiga ham yozilgan;
- b) bu raqam uchburchak ichida yo'q;
- d) bu raqam 5 dan katta.



11. O'zbekiston haqidagi kitobda 92 ta rangli va ranglilardan 17 ta kam oq-qora fotosurat mavjud. Ushbu kitobda jami nechta fotosurat bor?

12. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$33 + 48$$

$$62 - 24$$

$$7 \cdot 9$$

$$81 : 9$$

$$67 + 17$$

$$80 - 43$$

$$6 \cdot 5$$

$$24 : 8$$

